

BUXORO VILOYATI MUHOFAZA ETILADIGAN HUDDUDLARGA QISQACHA TAVSIF

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7823710>

Xolov Y.D.

Buxoro davlat universiteti . B. f.f.d (PhD)

Nasullayeva N.N.

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

n.n.nasullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya.

Mazkur tezisda Buxoro viloyati muhofaza etiladigan tabiiy hududlar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud , Qizilqum davlat qo'riqxonasi , "Dengizko'l" davlat buyurtma qo'riqxonasi , "Qoraqir" davlat ornitologik buurtma qo'riqxonasi , "Xadicha" davlat buyurtma qo'riqxonasi , "Qumsulton" davlat buyurtma qo'riqxonasi

Buxoro viloyati muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga Qizilqum davlat qo'riqxonasi , "Dengizko'l" davlat buyurtma qo'riqxonasi , "Qoraqir" davlat ornitologik buurtma qo'riqxonasi , "Xadicha" davlat buyurtma qo'riqxonasi , "Qumsulton" davlat buyurtma qo'riqxonasi kiradi.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi

Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971 yilda Qizilqum o'rmon xo'jaligidan ajratilgan yerlardan 3985 ga maydonda tashkil qilingan, hozirgi kunda qo'riqxona umumiylar maydoni 10311 hektardan iborat. Qo'riqxona ikki viloyat hududida joylashgan: shundan - 8844 ga Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida, 1467 ga Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan. Umumiy yer maydonining 7134 hektari Qizilqum cho'l zonasasi va 3177 hektari Amudaryo o'zani qirg'og'idagi to'qay zonasidan iborat. Qo'riqxona tashkil qilinishidan asosiy maqsad, hududdagi tabiiy o'ziga xos qum va daryo bo'yli o'rmonzorlarini muhofaza qilish, mavjud o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini saqlab qolish, ularni tabiiy xolda saqlanishini ta'minlash va tiklash, noyob hisoblangan buxoro bug'usi (xonkul)ni tarixiy yashash joylarini qo'riqlash, ularni bosh sonini tiklash, tabiiy jarayonlar kechishini tadqiq va tahlil etish, tabiat muhofazasi ilmiy asoslarini yaratish va ekologik bilimlarni targ'ib qilishdan iborat. Qo'riqxonada 174 o'simlik

turlari, qushlarning 266 turi, 27 turdagи baliqlar, sudemizuvchilarning 36 turi, sudralib yuruvchilarning 29 turi mavjud bo'lib shundan: o'simliklardan Mattey qandimi, Korolkov lolasi, sudemizuvchilardan: Buxoro bug'usi, Jayron, Qoraquloq, sudralib yuruvchilardan: Bo'z echkiemar va 8 tur baliqlar, 32 tur qushlar Qizil kitobga kiritilgan.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi

"Jayron" ekemarkazi- Buxoro viloyatining janubi-sharqiy qismida , Buxoro shahridan 42 km , Kogon shahridan 15 km masofada Buxoro tumanida joylashgan. Markaz turli xil muhofaza rejimiga ega bo'lgan 2 ta hududga ega:

1- simto'r bilan himoyalangan maydon bo'lib , maydoni 5145 hektar .

2- ochiq hudud 11377 hektardan iborat.

Markazning umumiy maydoni 16522 hektarni tashkil qiladi. Markaz 1977-yilda noyob hayvon turlarini , ayniqsa, jayron turini ko'paytirish va saqlab qolish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish markazi sifatida tashkil qilingan . Pitomnik O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mutasi tasarrufida faoliyat yuritadi.

Ekomarkazningning asosiy maqsadi biologik xilma-xillikni saqlash , kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonlar turlarini ko'paytirish shuningdek, janubi-g'arbiy Qizilqum cho'li landshaftlarini saqlab qolish va mahalliy aholi o'rtasida ekologik ta'lif tizimini shakllantirish.

"Jayron" ekemarkazi -noyob hayvonlarni ko'paytirish bo'yicha xalqaro e'tirof etilgan pitomnik hisoblanadi. Hozirgi kunda pitomnik hududida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining "Qizil ro'yxat"iga kiritilgan quyidagi noyob hayvonlar ko'paytirilmoqda: jayron (1200 bosh) , Turkman quloni (175 bosh) , prejeval oti (16 bosh) , Buxoro tog' qo'yи (48 bosh) , Buxoro bug'usi (1 bosh) .

"Jayron" Ekomarkazida ilmiy tadqiqot ishlari u tashkil etilganidan buyon o'tkazilib kelinmoqda. Pitonik yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi (Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti , Fanlar Akademiyasining Samarqand filiali , Veterinariya instituti)

- Rossiya (A.V. Seversov nomidagi hayvonlarning evolyutsion morfologiysi va ekologiyasi instituti , Geografiya instituti , Moskva davlat universiteti , Moskva va Sankt-Peterburg hayvonot bog'lari)

- Fransiya (Fanlar Akademiyasi "Shize' va " Lyarosh" naslchilik markazlari)

- AQSH (Kaliforniya universiteti)

- Germaniya Zoologiya instituti

“Qoraqir” ornitologik davlat buyurtma qo’riqxonasi

Qo’riqxona Buxoro viloyatining Romitan va Peshku tumanlari hududida tashkil etilgan. U Buxorodan 110 km uzoqlikda joylashgan. Gazli shaharchasiga yaqin (30 km).

Bu Severniy kollektoridan suv bilan to’ldirilgan tabiiy depressiya. Suv ombori 1970 yillarning oxirlarida shakllana boshlagan. Ko’lllar va orollar vujudga kelgan. Ko’llardagi suv sathi yilning fasliga qarab juda katta farq qiladi. Qo’riqxonada ham suv, ham yer borligi sababli, u o’simlik va hayvonot dunyosiga boy. Hududda bo’sh (zichlashmagan) qum va qumtepalar kamdan-kam uchraydi, ko’pincha ular qattiq qumdir. Relefi tekis. Buyurtma qo’riqxona mavsumiy ko’chib yurish paytida ko’chib yuruvchi qushlarning dam olish maskani va qushlarning ko’payishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu suv qushlari va boshqa qushlarning migratsiya oqimi yo’lida joylashgan.

“Qumsulton” davlat buyurtmaxonasi

2010-yil 25-oktabrda tashkil qilingan. Buxoro viloyatining Jondor va Olot tumanlarida joylashgan. Maydoni 4900 hektar.

“Dengizko’l” davlat buyurtmaxonasi

1990-yil 26-iyunda tashkil qilingan. Olot tumanida joylashgan. Maydoni 50000 hektar.

“Xadicha” davlat buyurtmaxonasi

2010-yil 25-oktabrda tashkil etilgan. Qorovulbozor tumanida joylashgan. Maydoni 11300 hektar. Shundan suvli maydon – 9330 hektar, quruqlik cho’l zonasasi – 1970 hektar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi milliy atlasi I tom
2. Buxoro viloyati o’lkashunoslik atlasi
3. w.w.w.lex.uz